



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ergasheva Aziza G'olib qizi

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Эргашева Азиза Голиб кизи

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF MODERN BANKING SERVICES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ergasheva Aziza Golib qizi

Received: May 1, 2026 Revised: May 6, 2026 Accepted: May 9, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari, bank tizimini raqamlashtirish jarayonlari, elektron to'lov tizimlari, mobil va internet banking xizmatlarining iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, fintech texnologiyalarining bank sektoriga ta'siri, masofaviy xizmatlarning afzalliklari hamda bank tizimida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Maqolada zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Bank tizimi, zamonaviy bank xizmatlari, raqamli iqtisodiyot, fintech, mobil banking, internet banking, elektron to'lov tizimlari, masofaviy xizmatlar, innovatsion texnologiyalar, moliyaviy xizmatlar.

Аннотация: В данной статье проанализированы перспективы развития современных банковских услуг в Республике Узбекистан, процессы цифровизации банковской системы, роль электронных платежных систем, мобильного и интернет-банкинга в экономике. Также рассмотрены влияние fintech-технологий на банковский сектор, преимущества дистанционных услуг, существующие проблемы в банковской системе и пути их решения. В статье особое внимание уделено вопросам обеспечения финансовой стабильности и повышения экономической эффективности посредством развития современных банковских услуг.

Ключевые слова: банковская система, современные банковские услуги, цифровая экономика, fintech, мобильный банкинг, интернет-банкинг, электронные платежные системы, дистанционные услуги, инновационные технологии, финансовые услуги.

Abstract: This article analyzes the prospects for the development of modern banking services in the Republic of Uzbekistan, the processes of digitalization of the banking system, and the role of electronic payment systems, mobile banking, and internet banking in the economy. It also examines the impact of fintech technologies on the banking sector, the advantages of remote services, existing problems in the banking system, and ways to solve them. Special attention is paid to ensuring financial stability and increasing economic efficiency through the development of modern banking services.

Keywords: banking system, modern banking services, digital economy, fintech, mobile banking, internet banking, electronic payment systems, remote services, innovative technologies, financial services.

KIRISH

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari bozori jadal rivojlanib, an'anaviy bank xizmatlari o'rni innovatsion va mijozga yo'naltirilgan tizimlar egallamoqda. Shu jarayonda ochiq banking (Open Banking) konsepsiyasi moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, banklar va uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchilari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga

qo'yish hamda raqobat muhitini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ochiq banking tizimi raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va fintech texnologiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ochiq banking tizimini joriy etishning



huquqiy, texnologik va institutsional asoslarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, ochiq banking tizimini milliy bank amaliyotiga joriy etish istiqbollari ilmiy jihatdan o'rganish va uning bank xizmatlari samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tadqiq etish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ochiq banking tizimi, raqamli bank xizmatlari hamda fintech texnologiyalarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan:

1. Chris Skinner (2019). *Doing Digital: Lessons from Leaders*. Ushbu manbada bank tizimini raqamlashtirish jarayonlari, ochiq banking konsepsiyasi va mijozlarga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarning ahamiyati yoritilgan. Muallif raqamli transformatsiya banklar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi.

2. Brett King (2018). *Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank*. Mazkur asarda zamonaviy bank xizmatlarining evolyutsiyasi, masofaviy xizmatlar hamda fintech texnologiyalarining bank sektoriga ta'siri tahlil qilingan.

3. World Bank (2021). *Digital Financial Services*. Hisobotda raqamli moliyaviy xizmatlarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, moliyaviy inklyuziyani oshirishdagi ahamiyati va ochiq banking tizimining istiqbollari ko'rib chiqilgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Bank tizimini raqamlashtirish va zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda strategik yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Ushbu manbalarda elektron to'lov tizimlari va mobil banking xizmatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

5. Xolmurodov A. va Karimova D. (2023). Raqamli iqtisodiyot va bank innovatsiyalari. Tadqiqotda O'zbekiston bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari, fintech texnologiyalarini joriy etish hamda ochiq banking tizimini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy tahlil hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, bank tizimi ko'rsatkichlarini o'rganishda statistik yondashuv va mavjud jarayonlarni baholashda tizimli tahlil usuli qo'llanildi. Ilmiy manbalar asosida ochiq banking konsepsiyasining nazariy asoslari, raqamli bank

xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari hamda innovatsion texnologiyalarning bank sektoridagi o'rni o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga asoslanadi. Ushbu jarayon bank xizmatlari sohasida ham chuqur transformatsiyani yuzaga keltirib, xizmatlar tezligi, sifati va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat samaradorligi raqamli texnologiyalar orqali sezilarli darajada oshadi. Xususan, sun'iy intellekt (AI) bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, mijozlarning xulq-atvorini tahlil qilish va kredit risklarini prognoz qilish imkonini beradi. Big Data texnologiyalari esa katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlash orqali strategik qarorlar qabul qilishni optimallashtiradi. Shuningdek, IoT (Internet of Things) texnologiyalari bank infratuzilmasida real vaqt rejimida monitoringni yo'lga qo'yish va xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli egizaklar esa moliyaviy tizimlarni virtual muhitda modellashtirish orqali xavf-xatarlarni kamaytirish va jarayonlarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi.

O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- bank xizmatlarida resurslardan samarali foydalanish (energiya tejamlilik va operatsion xarajatlarni kamaytirish);
- ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini oshirish;
- moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish va yangi bozor segmentlarini shakllantirish;
- mijozlarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish darajasini oshirish;
- kadrlar salohiyatini rivojlantirish va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalarni bank tizimiga joriy etish ochiq banking tizimini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi hamda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda Open Banking tizimining O'zbekiston moliya bozoriga ta'siri va rivojlanish drayverlari kompleks tarzda tahlil qilingan:

1-jadval

O'zbekistonda Open Banking rivojlanishining multidissiplinar tahlili

Tahlil yo'nalishi	Tavsif va tarkibiy qismlar	Kutilayotgan iqtisodiy natija
Huquqiy-me'yoriy baza	Markaziy bankning "Open API" standartlari, "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi	Bozor ishtirokchilari uchun yagona "o'yin qoidalarini" shakllanishi va huquqiy risklarning kamayishi
Texnologik infratuzilma	Banklarning Core Banking tizimlarini API bilan integratsiya qilish, bulutli texnologiyalar va kiberxavfsizlik protokollari	Tranzaksion xarajatlarning 25-30% ga qisqarishi va xizmatlar ko'rsatish tezligining ortishi
Bozor konyunkturasi	Traditsion banklar va Fintex startaplar o'rtasidagi raqobat hamda hamkorlik (Coopetition) modelining shakllanishi	Moliya bozorida monopoliyaning pasayishi va yangi innovatsion mahsulotlar ulushining ortishi
Mijozlar segmenti	Aholining raqamli savodxonligi, moliya xizmatlarining shaxsiylashtirilishi va "Yagona oyna" (Account Aggregation) tamoyili	Moliyaviy inklyuzivlikning (qamrovning) 1.5 baravarga ortishi va mijoz ishonchining mustahkamlanishi



Open Banking istiqbollarini xalqaro tajriba bilan qiyoslaganda, O'zbekiston modeli asosan Yevropa Ittifoqining PSD2 direktivasi va Buyuk Britaniyaning OBIE standartlariga yaqinlik kasb etadi. Biroq, milliy bozorning o'ziga xos xususiyatlari — davlat banklarining

yuqori ulushi va moliya bozorining jadal o'sish sur'atlari — tizimni joriy etishda alohida yondashuvni talab etadi. Quyidagi jadval orqali O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi o'rni global tendensiyalar bilan qiyosiy ko'rish mumkin:

2-jadval

Open Banking modellari: Xalqaro tajriba va O'zbekiston istiqboli

Ko'rsatkich	Buyuk Britaniya (Regulyativ model)	AQSH (Bozor modeli)	O'zbekiston (Gibrid/Istiqbol)
Asosiy regulyator	Markaziy bank va FCA (Majburiy)	Bozor ishtirokchilari (Ixtiyoriy)	Markaziy bank (Yo'naltiruvchi/Majburiy)
API standartlari	Yagona va qat'iy standartlar	Turli xil xususiy standartlar	Unifikatsiyalashgan milliy standartlar
Ma'lumotlar egasi	Mijoz (Ma'lumotlar portabilligi)	Shartnomaviy kelishuvlar	Mijoz (Qonuniy himoyalangan)
Rivojlanish bosqichi	To'liq shakllangan (Mature)	Yuqori darajada rivojlangan	Shakllanish va adaptatsiya bosqichi

Iqtisodiy nuqtai nazardan, Open Bankingning joriy etilishi banklar uchun "Banking as a Service" (BaaS) va "Platform Banking" kabi yangi biznes modellarni yaratadi. Bu esa banklarga o'zining an'anaviy mahsulotlaridan tashqari, uchinchi tomon xizmatlarini (sug'urta, savdo, lizing) integratsiya qilish orqali komissiya daromadlarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Tizimning muvaffaqiyatli integratsiyasi bevosita uch bosqichli rivojlanish mantiqiga tayanadi: birinchi navbatda, API standartlarining unifikatsiyasi; ikkinchi bosqichda, innovatsion mahsulotlarni "Sandbox"

doirasida sinovdan o'tkazish; va nihoyat, barcha moliya institutlarining ochiq platformalarga o'tishi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda Open Banking istiqbollari banklarning an'anaviy yopiq tizimlardan ochiq hamkorlikka qanchalik tez moslashishiga bog'liq. Mazkur transformatsiya nafaqat mijozlar uchun qulaylik yaratadi, balki mamlakat iqtisodiyotining raqamli segmentini integratsiyalashgan holda rivojlantirishga, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga va milliy moliya tizimining global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi katalizator vazifasini o'taydi.

O'ZBEKISTONDAGI OPEN BANKING HOLATI SWOT TAHLILI



1-rasm. O'zbekistonda Open Banking holati SWOT tahlili



Yuqoridagi rasmda O'zbekistonda Open Banking tizimining joriy etilish holati SWOT tahlil asosida yoritilgan bo'lib, unda tizimning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy xavflar kompleks tarzda tahlil qilingan. Mazkur tahlil ochiq banking tizimini rivojlantirish istiqbollarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

SWOT tahlilning "Strengths" (kuchli tomonlar) qismida davlat darajasida Open Banking'ni joriy etish bo'yicha aniq strategiyaning mavjudligi, API markazlari va regulator sandbox platformalarining shakllantirilayotgani hamda banklar va fintech kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikning ortib borayotgani ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, raqamli bank xizmatlari va to'lov ekotizimlarining jadal rivojlanishi ochiq banking tizimini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

"Weaknesses" (zaif tomonlar) bo'limida esa ochiq API standartlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik bilan bog'liq muammolar mavjudligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, Open Banking yo'nalishida malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda ayrim banklarning yangi tizimga moslashish jarayonlari sust kechayotgani qayd etilgan.

"Opportunities" (imkoniyatlar) qismida fintech va innovatsion xizmatlarni rivojlantirish, moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish hamda mijozlarga yo'naltirilgan yangi xizmatlarni yaratish imkoniyatlari mavjudligi ko'rsatilgan. Bu esa bank xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish va zamonaviy moliyaviy ekotizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

"Threats" (xavflar) bo'limida esa kiberxavfsizlik tahdidlari, xalqaro qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda an'anaviy banklarning raqobatga moslasha olmaslik xavfi asosiy muammolar sifatida qayd etilgan. Ayniqsa, axborot xavfsizligi bilan bog'liq xatarlar foydalanuvchilarning bank tizimiga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi alohida ta'kidlangan.

Umuman olganda, SWOT tahlil natijalari O'zbekistonda Open Banking tizimini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tizimni samarali joriy etish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish va kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda O'zbekistonda Open Banking tizimi rivojlanishning boshlang'ich bosqichida bo'lsa-da, ushbu yo'nalish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy tendensiyani namoyon etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kuchli kiberxavfsizlik tizimini shakllantirish, yagona API standartlarini joriy etish hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali yaqin yillarda Open Banking tizimi mamlakat moliya bozorining muhim tarkibiy qismiga aylanishi mumkin. Bu esa fintech xizmatlari rivojlanishiga, bank xizmatlari xarajatlarining kamayishiga va iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida Open Banking tizimini samarali joriy etish va uning imkoniyatlaridan

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

to'liq foydalanish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, Open Banking tizimining huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish zarur. Xususan, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari va fintech kompaniyalari o'rtasida ma'lumot almashinuvini tartibga soluvchi yagona Open API standartlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Mazkur standartlarda texnik infratuzilma, axborot xavfsizligi hamda ma'lumotlar almashinuvi formatlari aniq belgilanishi lozim. Shu bilan birga, to'lov tizimi ishtirokchilarini ma'lumotlar provayderlari va to'lov tashabbuskorlari sifatida huquqiy jihatdan tartibga solish Open Banking ekotizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, texnologik infratuzilma va kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlash talab etiladi. Banklararo ma'lumot almashinuvini nazorat qiluvchi markaziy API platformasini rivojlantirish, zamonaviy himoya mexanizmlarini joriy etish hamda biometrik autentifikatsiya tizimlaridan foydalanish foydalanuvchi ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mijozlarning roziligini boshqarish tizimlarini Face-ID va MyID kabi texnologiyalar asosida takomillashtirish Open Banking xizmatlariga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Uchinchidan, tijorat banklari faoliyatida yangi biznes-modellarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. An'anaviy banklar Open Banking tizimini qo'shimcha raqobat emas, balki yangi imkoniyat sifatida qabul qilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, platforma-bank modeliga o'tish, uchinchi tomon xizmatlarini bank ilovalariga integratsiya qilish hamda Banking as a Service (BaaS) xizmatlarini rivojlantirish banklarning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va iste'molchilar ishonchini mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolarga o'z ma'lumotlari ustidan nazorat qilish huquqi, ma'lumotlar xavfsizligi va Open Banking tizimining afzalliklari haqida keng tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Shu bilan birga, kiberfiribgarlik bilan bog'liq holatlarda banklar va fintech kompaniyalarining javobgarlik mexanizmlarini aniq belgilash hamda sug'urta tizimlarini joriy etish foydalanuvchilarning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi.

Umuman olganda, Open Banking tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish O'zbekiston bank sektorida innovatsion muhitni shakllantirish, raqobatbardosh moliyaviy xizmatlarni kengaytirish hamda raqamli iqtisodiyot taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ergasheva Aziza G'olib qizi, O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistri / Эргашева Азиза Голиб кизи, магистр Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан / Ergasheva Aziza G'olib qizi, Master's student at the



Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: aziza.ergasheva1998@gmail.com

ORCID: 0009-0004-9510-3571

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chris Skinner. *Doing Digital: Lessons from Leaders*. Marshall Cavendish Business, 2019.
2. Brett King. *Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank*. Wiley, 2018.
3. Don Tapscott. *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World*. Penguin Books, 2018.
4. World Bank. *Digital Financial Services Report*. Washington DC, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini raqamlashtirish bo‘yicha statistik va tahliliy materiallar. Toshkent, 2023.
6. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimini isloh qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
8. Xolmurodov A., Karimova D.. *Raqamli iqtisodiyot va bank innovatsiyalari*. Toshkent, 2023.
9. Fintech va Open Banking tizimlariga oid ilmiy maqolalar hamda xalqaro tadqiqot materiallari.
10. Raqamli bank xizmatlari va elektron to‘lov tizimlari bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlar va internet manbalari



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz